



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 21 - dekabr

VI-62-102-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi 07.06.2017- yildagi PQ-3042-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019-yil 6-7-may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 19-sonli majlis bayonining 18-bandи ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buvayda tuman hokimligi hodimlarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ularda ishga bo'lган mas'uliyat va munosabatlarini oshirish hamda ular o'rtaida korrupsiyaviy muhitning shakllanishini oldini olish maqsadida tuman mahalliy budgetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari qismi hisobidan **8 200 000** (sakkiz million ikki yuz ming) so'm tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G'aniev)ga:

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli moliya va g'aznachilik bo'limlariga taqdim etishini nazoratga olish;

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman moliya bo'limi va g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilishi hamda mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida harajatlar smetasiga o‘zgartirish kiritish va belgilangan tartibda ro‘yhatga olish, tuman G‘aznachilik bo‘limi (Sh.Soliev)ga to‘lovlarni o‘rnatalgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minalash vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining “Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo“yicha” doimiy komissiyasi (H.Akbarov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.